# BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLIGIDA FITONIMLARNING QO'LLANILISHI

**Abduvaliyeva Nodira Alisherovna**
Farg'ona davlat universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi**
Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Fitonimika va fitonim tushunchasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yod tushuncha bo'lib, aynan shunday atama ko'rinishida qo'llanilmaydi, balki uning ma'lum tur va guruhlari xalqona va sodda tilda ifodalanadi. Fitonimika tarixiga nazar soladigan bo'lsak unga oid dolzarb muammolardan biri lug'at tadqiqoti - bu "fitonim" semantik kengaytmasining ta'rifi hisoblanadi. Chunki umumiy qabul qilingan ma'no va mazmun, ta'rif kam yoki deyarli yo'q. Tilshunoslikda keng qo'llanilishiga qaramay, ushbu atamaning talqini ommalashmagan. Lekin o'simlik nomlari keng ommalashgan turli fanlarda turli maqsadlar uchun xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Fitonimika, fitonim, nom, matematik amallar, omil, xususiyat, ko'rinish, o'simlik, hudud, xalq, urf-odat, madaniyat, davr, kashfiyot, masala, misol, son

Boshlang'ich sinf matematika darsliklarida fitonimlar (o'simlik nomlari) juda ko'p uchraydi va ular o'quvchilarga hayotiylik, qiziqish va milliylik berish maqsadida ishlatiladi.

Fitonimlarning darslikda qo'llanishi va maqsadi:

1. Masalalarda qahramon sifatida. Masalan: "Bog'da 5 ta olma daraxti, 3 ta anor daraxti bor. Jami nechta daraxt?". Bu yerda olma, anor kabi fitonimlar sonlarni amaliy misollarda tushunarli qilish uchun qo'llanadi.




2. Qo'shish-ayirishni o'rgatishda. "Bolalar 7 dona olma terishdi, 2 donasini yedi. Nechta olma qoldi?". Bu orqali o'quvchilar oddiy hayotiy misolda matematik amallarni tez anglaydi.













3. Tasviriylik va qiziqishni oshirishda. Fitonimlar masalani quruq raqamlardan ko'ra qiziqarli qiladi. Bolalar sonni emas, balki meva va daraxtni ko'z oldiga keltirib hisoblashadi.

4. Tarbiya berishda Masalan, "O'quvchilar 10 ta ko'chat ekishdi. 4 tasi olcha, 6 tasi chinor. Jami nechta daraxt?" – bu misolda matematika bilan birga tabiatni asrash, daraxt ekishga o'rgatish g'oyasi ham singdiriladi

Boshlang'ich sinf matematika darsliklarida fitonimlar son va amal tushunchalarini oddiy, qiziqarli, hayotiy va tarbiyaviy shaklda berish maqsadida qo'llanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Madaliyeva Y. O'zbek tilida fitonimlarning leksik-semantik va tematik xususiyatlari "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_ SJIF: 4.995-www.pedagoglar.uz-Volume-23, Issue-1, December -202269.

2. I.V.Repyova. Matematika 2-sinf darslik. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.

3. I.V.Repyova. Matematika 1-sinf darslik. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.